



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING  
BUYRUG'I**

2023 - yil « 10 » avgust 355 -son

Toshkent shahri

**Xorijiy va nodavlat oliy ta'lismuassasalaridan o'qishni ko'chirish bo'yicha ro'yxatdan o'tgan fuqarolar uchun kasbiy (ijodiy) imtihonlarni yuqori saviyada tashkil etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022/2023 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lismuassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida” 2022-yil 15-iyundagi PQ-279-son qarori ijrosini ta'minlash hamda 2023/2024 o'quv yilida xorijiy va nodavlat oliy ta'lismuassasalaridan respublika davlat oliy ta'lismuassasalarining kirish sinovlari tarkibida kasbiy (ijodiy) imtihon bo'lgan bakalavriat ta'limga yo'naliishlariga o'qishni ko'chirish bo'yicha ro'yxatdan o'tgan fuqarolar uchun kasbiy (ijodiy) imtihonlarni yuqori saviyada tashkil etish maqsadida

**B U Y U R A M A N:**

1. 2023/2024 o'quv yilida xorijiy va nodavlat oliy ta'lismuassasalaridan kirish sinovlari tarkibida kasbiy (ijodiy) imtihon bo'lgan bakalavriat ta'limga yo'naliishlariga o'qishni ko'chirish bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar:

2022/2023 o'quv yilida alohida iqtidor talab etiladigan bakalavriat ta'limga yo'naliishlariga kirish imtihonlari dasturi va baholash mezonlariga muvofiq 2023-yilning 14-15 avgust kunlari o'tkazilishi belgilansin.

2. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar mavjud bo'lgan oliy ta'lismuassasalarini rahbarlari 1 kun muddatda imtihon komissiyasi raisi va a'zolarini vijdonli, halol va tajribali professor-o'qituvchilar tarkibidan shakllantirish hamda boshqa oliy ta'lismuassasalaridan ham qo'shimcha ravishda malakali professor-o'qituvchilarni jalb etish choralarini ko'rsin.

3. Mazkur oliy ta'lismuassasalarida kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazilishini nazorat qilish uchun biriktirilgan vazirlik mas'ul xodimlari ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Vazirlik va vazirlik tizi midagi tashkilotlarning barcha darajadagi rahbarlari mas’ul xodimlarni belgilangan muddatlarda o‘zлari biriktirilgan oliy ta’lim muassasasiga yetib borishlarini ta’minlasin.

5. Mas’ul xodimlar oliy ta’lim muassasalari rahbarlari bilan birgalikda:

kasbiy (ijodiy) imtihonlarni tasdiqlangan dasturlarga mos ravishda tashkil etish va o’tkazish;

kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyalari faoliyatida shaffoflikni ta’minlash choralarini ko’rsin.

6. Kasbiy (ijodiy) imtihon o’tkazilayotgan tegishli oliy ta’lim muassasalari rahbarlariga:

kasbiy (ijodiy) imtihonlarni joriy yilning 15-avgustigacha o’tkazilishi va natijalarni 16-avgustgacha Bilim va malakalarni baholash agentligi platformasiga kiritilishini nazoratga olish;

kasbiy (ijodiy) imtihonlar bo‘lib o’tadigan joyi va vaqt bo‘yicha abituriyentlarni o‘z vaqtida xabardor qilish;

imtihon o’tkaziladigan joylarda nazoratni kuchaytirish hamda jarayonni yozib olish uchun videokamera vositalarini perimetr bo‘yicha o‘rnatish;

stadionlardagi “Start”, “Finish” hamda har bir yo‘nalish chiziqlarini aniq va ko‘rinarli holatga keltirish;

oliy ta’lim muassasasi **veb-sayti** va **imtihon.edu.uz** platformasida imtihon jarayonlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovozli tarzda onlayn kuzatish imkoniyatini yaratish hamda kunlik videokuzatuv yozuvlarini saqlanishini shaxsan nazorat qilish;

kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonlarining har bir holatini (jumladan, abituriyentning imtihon topshirish jarayoni, imtihon komissiyasi tomonidan abituriyentning imtihon natijasini qaydnomaga kiritilishini va b.) sifatli video tasvirga olinishini ta’minlash;

kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonlari yozilgan video tasvir ma’lumotlarini oliy ta’lim muassasasida majburiy tartibda 3 yil muddat davomida saqlanishini ta’minlash;

kasbiy (ijodiy) imtihonlar o’tkazilishi davrida belgilangan tartibda norozilik (apellyatsiya) arizalarini ko‘rib chiqish uchun sohaning yetuk mutaxassislari va boshqa oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilaridan iborat apellyatsiya komissiyasi tashkil etish;

imtihon o’tkaziladigan hudud va unga yaqin bo‘lgan joylarda abituriyentlarning ota-onalarini va boshqa fuqarolarning to‘planishiga yo‘l qo‘ymaslik;

ota-onalar kutish joylarini issiqlidan saqlovchi tegishli anjomlar bilan jihozlanishini ta’minlash;

imtihon jarayonlariga omrnaviy axborot vositalari, jamoatchilik vakillarini taklif etish vazifalari yuklatilsin.

7. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazilishini nazorat qilish uchun biriktirilgan mas'ul xodimlarning xizmat safari bilan bog'liq sarf-xarajatlari o'matilgan tartibda asosiy ish joyidan qoplansin.

8. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarning belgilangan vaqtidan kechiktirmasdan shaffof o'tkazilishi hamda natijalarni Bilim va malakalarni baholash agentligi platformasiga o'z vaqtida to'g'ri kiritilishi uchun oliy ta'lif muassasasi qabul komissiyasining raisi mas'ulligi belgilansin.

9. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (X.Sultanov), Raqamli ta'lif texnologiyalarini rivojlantirish markazi (A.Abdullayev) imtihon.edu.uz platformasida jonli (onlayn) efirda sifatli uzatilishini yo'lga qo'yish ishlarini amalga oshirsin.

10. Qabul shtabi (A.Xoliqov)ga:

imtihon jarayonlarini yuqori saviyada shaffof va adolatli o'tishi uchun barcha tashkiliy masalalarni amalga oshirish;

vazirlik mas'ul hodimlaridan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirishi;

imtihon jarayonida yuzaga kelgan muammolarni o'z vaqtida bartaraf qilish yuzasidan vazirlik mas'ullariga tegishli ko'rsatmalar berish;

imtihon komissiyasi raisi va a'zolarini boshqa oliy ta'lif muassasalaridan ham ja!b qilinganligiga alohida e'tibor qaratish vazifalari yuklatilsin.

11. Mazkur buyruq ijrosi nazorati vazirning birinchi o'rindosari K.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

I.Abduraxmonov

NUSXA  
ASLIGA TO'G'RI



Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirining 2023-yil **10** - avgustdag'i  
**355** - son buyrug'iiga 1-ilova

**Xorijiy va nodavlat oliy ta'lif muassasalaridan o'qishni ko'chirish bo'yicha  
ro'yxatdan o'tgan fuqarolar uchun kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonlarini  
nazorat qilish uchun biriktirilgan vazirlik mas'ul xodimlari**

**Ro'yhati**

<b>№</b>	<b>OTM nomi</b>	<b>F.I.SH.</b>
<b>1</b>	<b>Sirdaryo viloyati</b>	
1.	Guliston davlat universiteti	Toshpo'latov Bekzod Ulug'murodovich ( <i>bosh mutaxassis</i> ), Umaraliyev Alisher Tursunaliyevich ( <i>Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi</i> )
2.	Guliston davlat pedagogika instituti	
<b>2</b>	<b>Jizzax viloyati</b>	
1.	Jizzax davlat pedagogika universiteti	Abdullayev Ulug'bek Abdulxamidovich ( <i>yetakchi mutaxassis</i> ), Muzaffarov Samandar Izbasarovich ( <i>Jizzax viloyati hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi</i> )
<b>3</b>	<b>Samarqand viloyati</b>	
1.	Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali	Qalanov Xasan Yoqubovich ( <i>bosh mutaxassis</i> ), Bobojonov Dilmurod Urolovich ( <i>Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi</i> )
2.	Samarqand davlat chet tillar instituti	
3.	O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti	
<b>4</b>	<b>Navoiy viloyati</b>	
1.	Navoiy davlat pedagogika instituti	Jalilov Hafiz Naimovich ( <i>bosh mutaxassis</i> ), Murodullayev Umrzoq ( <i>Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi</i> )

<b>5</b>	<b>Buxoro viloyati</b>	
1.	Buxoro davlat universiteti	To‘raqulov Baxtiyor To‘lqinovich <i>(yetakchi mutaxassis),</i> Sattorov Fayzullo Fattoyevich <i>(Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi)</i>
2.	Buxoro davlat pedagogika institut	
3.	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti	
<b>6</b>	<b>Qashqadaryo viloyati</b>	
1.	Qarshi davlat universiteti	Qaxxarov Saloxiddin Yuldashevich <i>(bosh mutaxassis),</i> Eshbekov Azamat Erkinovich <i>(bosh mutaxassis),</i> Bekmurodov Sarvar Ro‘ziqulovich <i>(Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi)</i>
2.	Shahrisabz davlat pedagogika instituti	
<b>7</b>	<b>Surxondaryo viloyati</b>	
1.	Termiz davlat universiteti	Eshmamatov Ismoil Absalomovich <i>(bosh mutaxassis),</i> Do‘sanov Ravshan Xalilovich <i>(OTRTM direktor o‘rinbosari),</i> Nurmuxamedov Maxmadali Muxamatqulovich <i>(Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi)</i>
2.	Termiz davlat pedagogika instituti	
3.	Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	
<b>8</b>	<b>Xorazm viloyati</b>	
1.	Urganch davlat universiteti	Yuldashev Zafar Baxtiyarovich <i>(boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari),</i> Polvanov Aziz Rajabboyevich <i>(Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi)</i>
2.	Urganch davlat pedagogika instituti	
<b>9</b>	<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	
1.	Qoraqalpoq davlat universiteti	Allabergenov Murodjan Shakirovich <i>(yetakchi mutaxassis),</i> Abdimuratov Nurlan Usenovich <i>(Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi)</i>
2.	Nukus davlat pedagogika instituti	

<b>10</b>	<b>Toshkent viloyati</b>	
1.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti	Muydinov Dilshod Najmiddinovich ( <i>bo'lim boshlig'i</i> ), Mirzayev Bobirbek Adxamovich ( <i>Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi</i> )
<b>11</b>	<b>Farg'on'a viloyati</b>	
1.	Farg'on'a davlat universiteti	Xamidov Ihtiyor Bahtiyor o'g'li ( <i>bo'lim boshlig'i</i> ), Yuldashev Olimjon Ashurovich ( <i>yetakchi mutaxassis</i> ), Ziyoyev Boburjon Hikmatjon o'g'li ( <i>Farg'on'a viloyati hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi</i> )
<b>12</b>	<b>Namangan viloyati</b>	
1.	Namangan davlat universiteti	Mamatkulov Xurshid Abdurashidovich ( <i>bosh mutaxassis</i> ), Majidov Abduvali Turg'unpo'latovich ( <i>Namangan viloyati hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi</i> )
2.	Namangan davlat pedagogika instituti	
3.	Namangan muhandislik-texnologiya instituti	
<b>13</b>	<b>Andijon viloyati</b>	
1.	Andijon davlat universiteti	Turdiyev Zoxidjon Rustamovich ( <i>bosh mutaxassis</i> ), Omonqulov Bekzod Tursunali o'g'li ( <i>Andijon viloyati hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi</i> )
<b>14</b>	<b>Toshkent shahri</b>	
1.	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	Nematov Inatillo Ubaydullayevich ( <i>boshqarma boshlig'i</i> )
2.	Toshkent arxitektura-qurilish universiteti	Artikov Kurbonazar Amanovich ( <i>bo'lim boshlig'i o'rinnbosari</i> )
3.	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti	Salimov Akmal Alimjanovich ( <i>bosh mutaxassis</i> ), Davitov Umidjon Xasan o'g'li ( <i>yetakchi mutaxassis</i> )

4.	Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti	Norqulov Aliddin Nomoz o‘g‘li <i>(bosh mutaxassis)</i>
5.	Toshkent davlat pedagogika universiteti	Adizov Sanjar Rashidovich <i>(bosh mutaxassis),</i> Mamatkarimov Sarvar Abdukayumovich <i>(bosh mutaxassis)</i>
6.	O‘zbekiston milliy universiteti	Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich <i>(bo‘lim boshlig‘i)</i>